

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.27.01 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XAITQULOV ZAHRIDDIN XAZRATQUL O‘G‘LI

**TARJIMANI AVTOMATLASHTIRISHDA PARALLEL KORPUS
KONTEKSTUAL QIDIRUV TIZIMINING FUNKSIONAL MOHIYATI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
philological sciences**

Xaitqulov Zahriddin Hazratqul o‘g‘li

Tarjimoni avtomatlashtirishda parallel korpus kontekstual qidiruv tizimining funksional mohiyati3

Хаиткулов Захриддин Хазраткул угли

Функциональная особенность параллельной корпусной контекстуальной поисковой системы в автоматизации перевода29

Khaitkulov Zahriddin Khazratkul ugli

The Functional Features of an Automated Translation of Parallel Corpus Contextual Search57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
The list of publications.....62

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.27.01 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XAITQULOV ZAHRIDDIN XAZRATQUL O‘G‘LI

**TARJIMANI AVTOMATLASHTIRISHDA PARALLEL KORPUS
KONTEKSTUAL QIDIRUV TIZIMINING FUNKSIONAL MOHIYATI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3237 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergasheva Guli Ismoil qizi
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li
filologiya fanlari doktori, (PhD) dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30 12.2019. Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashining "26" aprel 2024-yil soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "13" aprel kuni tarqatildi.
(2024-yil "13" aprel dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.H. Bakiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya
fanlari doktori professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tabiiy tilga ishlov berish, asliyat tilni kompyuter yordamida tarjima qilish matematik lingvistika va mashina tarjimasi amaliyotida keng qo'llana boshlandi. Axborot texnologiyalarini tilshunoslikka tatbiq etish bilan bog'liq istiqbolli ilmiy yo'nalishlarda axborot-qidiruv tizimi, korpus lingvistiksi va mashina tarjimasida bir qancha ikki hamda ko'p tilli elektron tarjimon dasturlarini yaratish, korpus turlari orqali tarjima dasturlarining mexanizmlarini kengaytirish uni amliyotga tatbiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Zero, sun'iy intellektning parallel korpus orqali turli xil ko'zlangan tarjimon darsturlarini yaratishga, avtomatlashtirilgan lug'atlar, parallel matnlarni ikki va ko'p tillarda tahlil hamda tahrir qilish borasidagi imkoniyatlarining amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida tarjimani avtomatlashtirish, ikki va ko'p tilli elektron tarjimon dasturlarini korpus turlari yordamida yaratish, tarjima sifatini yaxshilash, ikki tilli parallel matnlar banki mexanizmini yaratish kabi masalalarni ilmiy asoslash zarurati kun tartibiga qo'yilgan. Axborot-qidiruv tizimida ikki va ko'p tilli elektron lug'atlar, so'zma so'z tarjima qiluvchi, qoidaga asoslangan tarjimon dasturi, statistik ma'lumotlarga tayanuvchi tarjimon dasturi, korpus turlari orqali matnlarni tahlil qiluvchi dasturlar, shuningdek, tarjima matnlarni lingvostatistik o'rganish dasturlari va ilovalarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Elektron tarjimon dasturlarini parallel va boshqa korpus turlaridan tashkil topgan matnlarni tahlil qilish ilovalari, kontekstual tarjimon dasturlari, katta va kichik hajmdagi ikki tilli ma'lumotlar bazasi, parallel korpusda avtomatik tarjima platformalari va ko'p tilli korpuslarni o'zida aks etgan yirik platformalarning yaratilishi hamda ularning jadal rivojlanishi kompyuter lingvistikasining hamda korpusga asoslangan tarjimashunoslikning ilmiy-nazariy muammolarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tarjimashunoslikka korpus tahlillari, korpus turlari, avtomatik tarjima, statistik mashina tarjimasi, gibridd mashina tarjimasi, qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, kompyuter lingvistikasi, ikki tilli va ko'p tilli korpuslar hamda tarjimon dasturlar ishlab chiqishda ingliz tilini o'zbek tilidagi tarjimalarini yanada chuqurroq tushunish va qayta ishlash yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish kabi masalalar kun tartibiga qo'yildi. "Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash"¹ bugungi kunda tilshunoslik va tarjimashunoslik oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Shunga ko'ra, ingliz va o'zbek tillarini kompyuter tiliga aylantirish, kontekstual tarjimon dasturlarini parallel matnlar orqali korpusga solish, matnlarning leksik birlikari, semantik xususiyatlarini tarjimon dasturlaridan foydalanuvchilar uchun maxsus korpus yaratish singari masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6084-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5058351>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 11avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 20 oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalariga 2020-yilning 24-yanvardagi Murojaatnomasi hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarjimani avtomatlashtirishda parallel korpus kontekstual qidiruv tizimi ko‘plab tilshunoslarning tadqiqot obyektiga aylanganligi bejiz emas. Buni so‘nggi yillarda tarjima sohasiga bo‘lgan katta e‘tibor va qiziqish, avtomatlashtirilgan tarjima dasturlarining rivojlanishi bilan tushuntirish mumkin.

Jahon tilshunosligida tarjimaning avtomatlashtirilgan xususiyatlari, mashina tarjimasining yaratilishi, uni yuritish tizimlari, dasturlari, mashina va inson tarjimasi, o‘ziga xos metodlari hamda METEO, ALPS, ATLAS, SMARTCAT, SYSTERON, LINGUEE, NTRON dasturlarining yaratilishi va ularning o‘ziga xos funksional imkoniyatlari bir qancha ingliz hamda rus tilshunos olimlar ishlarida o‘z ifodasini topgan. Dastlab G.V.Leybnits va R.Deskart² tomonidan jumla hamda so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligini kodlash masalasi ilgari surilgan. Shuningdek, mashina tarjimasining kelib chiqishi, ishlash tizimi, tarjimaning asosiy xususiyatlari, mashina va inson tarjimasining shakllanish yo‘li hamda tarjima dasturlarining yaratilish tadqiqotlari J.S.Zager, J.A.Alonso, P.Benett, R.T.Bell, R.Jakobson, J.B.Larj, V.Lavson kabi ingliz olimlari tomonidan amalga oshirilgan³. Tabiiy tilga ishlov berish muammolari A.Keyler, K.V.Linden, N.Vard⁴,

² Deskart R. History of machine translation. – Paris: Pergamon Press, 1983 // Article for translators: History of machine translation (translationdirectory.com).

³ Sager J.C. Language engineering and translation consequences of automation. – Philadelphia: John Benjamin’s publishing company, 1994. – P. 243-264; Alonso J.A. “Machine translation technology: on the way of market introduction” // Siemens review, 1987. – P. 54-60; Bennett P. The translation unit in humans and machines. – Manchester: CCL/UMIST, 1993. – P. 41-67; Bell R.T. Translation and translating, theory and practice. – London: Longman press, 1991. – P. 32-54. Jacobson R. “On linguistic aspects of translation”. R.A.Brower (Ed). – London, 1966. – P. 62-68; Large J.B. The foreign language barrier. – London, 1983. – P. 102; Lawson V. Practical experience of machine translation. – Amsterdam: NorthHolland press, 1982. – P. 105.

⁴ Jurafsky D.S. and. Martin J.H. Speech and language processing. Contributing writers: Prentice Hall, Englewood cliffs. – New Jersey, 2000. – P. 950.

M.A.Mohri⁵ tomonidan keng yoritilgan. Rus olimlaridan K.K.Boyarskiy kompyuter lingvistikasi haqida umumiy tushuncha, M.V.Xoxlova mashina tarjimasining asosiy tizimlari va ushbu dasturlarning kamchiliklari, I.G.Ovchinnikova kompyuter tarjimasini usullaridan samarali foydalanish va tarjimani avtomatlashtirishning yangi imkoniyatlari, P.V.Xonkina mashina tarjimasida idioma tarjimasining qo'llanilishi, L.I.Chovichning ingliz va rus tillarida matn tarjimasining xususiyatlarini tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan⁶.

O'zbekistonda ham tarjimaning avtomatlashtirilgan nazariyasi va mashinaviy tarjima dasturlarining ishlash tizimlari bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, B.Mengliyev hamda D.Ahmedovalar⁷ korpus tilshunosligidagi semantik teg toifalari hamda onlayn korpuslarni leksik-grammatik, leksik-mavzuviy va uslubiy baholash xarakteristikasini ochib berishgan. G.Sobirova BNC korpusini tillarni o'qitishda qo'llashga e'tibor qaratgan. J.Jumabayeva tildagi graduonimiyalarni ingliz tili korpusi yordamida o'rganib, semantik xususiyatlarini aniqlagan. Mualliflik korpusini yaratishning lingvistik asoslari Sh.Xamroyeva⁸ tomonidan tadqiq etilgan. N.Atoboyev korpuslar tasnifini maxsus prinsiplarga asoslangan holda keltirish mumkinligi va ularni ma'lum ma'noda qo'llash sohalariiga ko'ra turkumlash shartli ravishda yakuniy shaklga keltirilganligini o'z ilmiy tadqiqotida keltirib o'tgan⁹. N.Abdurahmonova¹⁰ tadqiqotida esa mashina tarjimasining lingvistik taminot yaratish masalalari yoritilgan. R.Karimov¹¹ o'zbek-ingliz parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalarini, parallel korpuslar funksionalining obyektivligi va adekvat mohiyatini ta'minlashda aslyatdan tarjima tiliga bevosita o'girilgan matnlarni janrlarga muvofiq tanlash strategiyasi va matn elementlarini parallel teglashda tarjima transformatsiyalari chegaralarini belgilash ustuvorlik qilishini ilmiy dalillagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № I-204-4-5 «Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish» mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

⁵ Mohri M.A. Finite-state transducers in language and speech processing. Computational linguistics. – New Mexico, 1994. – P. 269-312.

⁶ Боярский К.К. Введение в компьютерную лингвистику. – Санкт-Петербург, 2013. – С. 4-5; Холхова М.В. Анализ особенности машинного перевода. – Санкт-Петербург, 2016. – С. 7-12; Овчинникова И.Г. Использование компьютерных переводческих инструментов: новые возможности новые ошибки. Russian journal of linguistics; Хонькина П.В. Перевод идиоматических выражений в системах машинного перевода // Вестник московского университета. – Москва, 2010. – С. 68-71; Чович Л.И. Перевод как интерпретация и импровизация на материале сербских переводов мемуаров // Вестник московского университета. – Москва, 2012. – С. 68-71.

⁷ Mengliyev B., Ahmedova D. Semantic Tag Categories in Corpus Linguistics: Experience and Examination // International Journal of recent technology and engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, 2019.

⁸ Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 52 б.

⁹ Атабоев Н.Б. Инглиз тили корпусининг функционал хусусиятлари (СОСА мисолида). Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 14 б.

¹⁰ Абдурахмонова Н. Машина таржимасининг лингвистик асослари. – Т.: «Akademnashr», 2012. – 25 б.

¹¹ Каримов Р.А. Ўзбек-инглиз параллел корпусини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 7 б.

Tadqiqotning maqsadi tarjimani avtomatlashtirishda parallel korpus kontekstual qidiruv tizimining funksional imkoniyatlarini ingliz va o‘zbek tillari misolida (Sketch engine platformasi orqali) ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarjimani avtomatlashtirishda til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi sohasi nazariy asoslarini tadqiq etish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy hamda publitsistik matnlarning leksik xususiyatlarini izohlash va tarjimada kontekstual tahlil qilish;

parallel matnlar korpusi asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy hamda publitsistik matnlarning tarjima jarayonida qo‘llaniladigan usullarini aniqlash;

ilmiy hamda publitsistik uslubga xos mantlarda qo‘llanilgan desemantlashgan so‘zlarning leksik ma’nosi va kontekstual tarjimasini tahlilga tortish;

kontekstual tarjimon dasturlarini yaratishda korpus turlarining mohiyatini o‘rganish;

tarjima amaliyotida parallel korpusdan samarali foydalanish usullarini aniqlash va Sketch engine platformasining til korpuslarini yaratishdagi ahamiyatini ochib berish;

Linguee va Reverso kontekstual tarjimon dasturlarining mushtarak hamda farqli jihatlarini ochib berish asosida tarjimani avtomatlashtirishda parallel matnlar korpusining funksional vazifalarini aniqlash;

Sketch engine platformasida til korpusi va tarjimon dasturi yaratish bosqishlarini o‘rganish hamda ushbu platformada ingliz hamda o‘zbek tillari matnlarini parallel korpusga joylashtirish orqali kontekstual tarjimon dasturini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi parallel korpus kontekstual tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillari parallel korpusi kontekstual tizimining tarjima xususiyatlari va funksional aspekti tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda empirik tahlil, kuzatuv tahlili, korpus tahlili, tavsiflash, tasniflash, kontekstual tahlil va komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida tarjimani avtomatlashtirishga oid kontekstual dasturni yaratishda mashina tarjimasining Statistik (Statistic machine translation) va Neyron (Neyron machine translation) tizimlarining tabiiy tilni tushunish, uni avtokorrektor bilan tekshirish hamda yirik ma’lumotlar bazasidan keng foydalanish imkoniyatlari HMT (Hybrid machine translation), RBMT (Rule based machine translation) mashina tarjima tizimlaridan funkcionallik jihatidan samaradorligi asoslangan;

ilmiy va publitsistik matnlarda tez-tez uchraydigan desemantlashgan so‘zlarning kontekstual ma’nosining tarjimani avtomatlashtirishda mashina tarjimasining Rule based tizimi hamda dasturiy algoritmlarni qo‘llanilishini asoslash orqali o‘zbek tili parallel korpusini Sketch engine platformasiga kiritish mexanizmi CATning Trados tarjima xotirasi funksiyalarini joriy qilish orqali ishlab chiqilgan;

Sketch engine platformasida ingliz va o'zbek tillarida ilmiy va publitsistik matnlardagi kollokatsiyalar kontekstual tarjimon dasturini parallel korpusda yaratish bosqichlari *Adhog, Diy, comparable, monolingval, diaxronik, sinxron va parallel* korpusda so'z, ibora, kollokatsiya, idiomatik birlik, jumla va matn tanlash, uni elektron tizimga aylantirish, kontekstual qidiruv tizimini yaratish hamda dasturga yuklash bosqichlarini amalga oshirish orqali takomillashtirilgan;

avtomatlashtirilgan tarjimon dasturlariga oid umumiy talablarni amalda qo'llashning tizimli usullari parallel korpusda yaratishni takomillashtirish orqali Sketch engine platformasida ingliz va o'zbek tillarida kontekstual tarjimon dasturiga oid ilmiy va publitsistik matnlardan tashkil topgan elektron namunaviy baza yaratish bo'yicha eksperimental amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarjimani avtomatlashtirishda korpus turlarining metodlari, vazifalari va resurslari takomillashtirilgan;

parallel korpus asosida ilmiy va publitsistik matnlardan iborat bo'lgan kontekstual tarjima dasturining ixchamlashtirilgan bazasi shakllantirilgan;

Sketch engine platformasidan foydalangan holda ilmiy va publitsistik matnlarning ikki tilli (inglizcha-o'zbekcha) parallel korpusda kontekstual tarjimon dasturi mexanizmi yaratilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy hamda publitsistik matnlarga oid kollokatsiyalarning ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'rganilgan manba materiallarning tamoyillari va undagi qo'llanilgan usullar, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi ingliz, rus va o'zbek tillari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam bergani, ularning asosli ekanligi, xorijiy olimlarning nazariy qarashlarining tadqiqot ishida qamrab olingani, keltirilgan tahlillar, korpus turlari, tahlili va metodlari, tarjimani avtomatlashtirishda qo'llaniladigan bir qancha usullarning ishonchliligi, xulosa taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy qilingani, olingan natijalarning amalda isbotlangan manbalarga tayangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati parallel ilmiy matnlar korpusi kontekstual tarjimon dasturini yaratilishi va uni mukammallashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqilishi tarjimashunoslik, korpus lingvistikasi hamda mashina tarjmasi yo'nalishida tadqiqotlar olib borishda hamda kontekstual tarjimon dasturlari uchun ingliz tilidan o'zbek tiliga, tarjima qilish metodlarini tadbiiq qilinishi tarjimashunoslik sohasiga doir metodologik nazariyalarni tahlil qilish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati til nazariyasi, amaliy tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, mashina tarjimasini fanlari o'qitilish jarayonida dastur va reja tuzish, mavzularni bayon etishda manba vazifasini o'tash, tarjimaning avtomatlashtirilgan dasturlaridan keng foydalanish, shuningdek, tarjima amaliyotida kontekstual ikki tilda (ingliz-o'zbek tillarida) elektron lug'at tuzish va yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tarjimani avtomatlashtirishda parallel korpus kontekstual qidiruv tizimining funksional mohiyatini ochib berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida tarjimani avtomatlashtirishga oid kontekstual dasturni yaratishda mashina tarjimasining Statistik (Statistic machine translation) va Neyron (Neyron machine translation) tizimlarining tabiiy tilni tushunish, uni avtokorrektor bilan tekshirish hamda yirik ma'lumotlar bazasidan keng foydalanish imkoniyatlari HMT (Hybrid machine translation), RBMT (Rule based machine translation) mashina tarjima tizimlaridan funkcionallik jihatidan samaradorligiga oid xulosalardan universitetda bajarilgan Erasmus+dasturining ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbekistan State University of World Languages and Ruhr University Bochum (Germany) – 2020-1-DE01-KA107-005433 (Yevropa Ittifoqi hamda O'zbekiston Oliy Ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro tajriba almashinuvi doirasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Boxumdagi Rur universiteti (Germaniya) o'rtasidagi kredit safarbarligi) loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 17-iyul № IRD/23-156-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu dissertatsion ishda tadqiq etilgan kontekstual tarjimon dasturining kichik bazasidan loyiha doirasida qo'llanilgan;

ilmiy va publitsistik matnlarda tez-tez uchraydigan desemantlashgan so'zlarning kontekstual ma'nosining tarjimani avtomatlashtirishda mashina tarjimasining Rule based tizimi hamda dasturiy algoritmlarni qo'llanilishini asoslash orqali o'zbek tili parallel korpusini Sketch engine platformasiga kiritish mexanizmi CATning Trados tarjima xotirasi funksiyalarini joriy qilishga oid tavsiyalardan Erasmus+dasturining ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbekistan State University of World Languages and Ruhr University Bochum (Germany) – 2020-1-DE01-KA107-005433 (Yevropa Ittifoqi hamda O'zbekiston Oliy Ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro tajriba almashinuvi doirasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Boxumdagi Rur universiteti (Germaniya) o'rtasidagi kredit safarbarligi) loyihasida amaliy foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 3-oktabr № 06/556-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuqorida qayd etilgan korpus turlaridan dastur doirasida tajriba sifatida foydalanilgan;

avtomatlashtirilgan tarjimon dasturlariga oid umumiy talablarni amalda qo'llashning tizimli usullari parallel korpusda yaratishni takomillashtirish orqali Sketch engine platformasida ingliz va o'zbek tillarida kontekstual tarjimon dasturiga oid ilmiy va publitsistik matnlardan tashkil topgan elektron namunaviy baza yaratish bo'yicha eksperimental amaliy tavsiyalardan, shuningdek parallel korpusda Sketch engine platformasida ingliz va o'zbek tillarida kontekstual tarjimon dasturiga oid ilmiy va publitsistik matnlardan tashkil topgan elektron namunaviy bazasidan yoshlarni tarjimaga bo'lgan qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ilmiy hamda publitsistik matnlarni parallel korpusda tarjima qilishga oid tanlovlarini o'tkazish chora-tadbirlarini amalga oshirishda O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasining xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini, el-yurtimizning fidokorona mehnati bilan erishilayotgan tub o'zgarishlarni teran aks ettirishga foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 28-noyabrdagi 01-03/3150-ma'lumotnomasi). Natijada, Sketch engine platformasida ilk marotaba ingliz va o'zbek tillari parallel korpusi kontekstual tarjimon dasturi mexanizmini shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi borasidagi tadqiqotchining umumlashma xulosalari yosh yozuvchilar uchun ilmiy hamda publitsistik matnlarni tarjima qilish uchun amaliy-nazariy manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 10 ta ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, shundan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola ulardan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda e'lon qilingan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot hajmi 178 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan bo‘lib, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Amaliy tilshinoslikda tarjimani avtomatlashtirish konsepsiyasi**” deb nomlangan birinchi bobida mashina tarjimasining tarixi, etimologiyasi, ixtiro qilinish bosqichlari, tarjimani avtomatlashtirishning tasniflash muammosiga oid nazariy tahlillar hamda mashina tarjimasini mexanizmlarining funksional bosqichlari tahlilga tortilgan.

Etimologik jihatdan “mashina tarjimasini” atamasi dastlab faqatgina inson aralashuvisiz ishlaydigan avtomatik tizimlarni belgilash uchun qo‘llanilgan. Yevropa mashina tarjimasini uyushmasi (The European Association for Machine Translation EAMT)¹² mashina tarjimasini “matnni asl tildan maqsadli tilga o‘tkazish uchun kompyuterdan foydalanish” sifatida izohlaydi. O‘z navbatida, xalqaro mashina tarjimasini assotsiatsiyasi (International Association for Machine Translation IAMT)¹³ mashina tarjimasini “bir vaqtning o‘zida to‘liq jumlaning kiritish orqali tarjima variantini hosil qilish” deb hisoblagan¹⁴.

A.V.Semenovga ko‘ra, “mashinali tarjima tizimlarining asosiy maqsadi manba tilini maqsadli tilning ekvivalent matniga yuqori sifatli tarjima qilishdir. Biroq avtomatlashtirilgan tarjima tizimi tomonidan amalga oshirilgan tarjima mukammal emas, shuningdek, tarjima qilingan matn keyingi tahrirni talab qiladi. Ba‘zan tarjima qilingan matnlarga tarjimaning aniqligi, taqdimotning o‘ziga xos uslubi uchun yuqori talablar qo‘yilmaydi, asosan, qilingan tarjima umumiy “*mazmun*”ni o‘quvchiga “*hisobot*” tariqasida taqdim qilish bilan kifoyalanadi. Natijada, tarjima qilingan “*xom*” matn qabul qilinadi”¹⁵.

Ch.Bebbij, asosan, XIX asrning o‘rtalarida raqamli analitik mashina loyihasi ustida ishlagan va ushbu raqamli analitik mashinalar loyihasini 1855-yilda Parijdagi ko‘rgazmada omma oldiga taqdim qilgan. Ch.Bebbij bunday mashinadan lug‘atlarni saqlash uchun ham foydalanish mumkin degan xulosaga kelgan¹⁶.

1933-yilda lingvistik arifmometr muallifi P.Smirnov-Troyanskiy Sobiq Rossiya Fanlar akademiyasiga o‘zi ishlab chiqqan “bir tildan ikkinchi tilga

¹² EAMT – The European Association for Machine Translation // <https://eamt.org/>

¹³ IAMT – International Association for Machine Translation.

¹⁴ Семенова А.В., Курейчик В.М. Обзор и анализ состояния проблемы обработки текстовой информации в системах машинного перевода / Информатика, вычислительная техника и инженерное образование. – М., 2014. – С. 2.

¹⁵ Семенова А.В., Курейчик В.М. Обзор и анализ состояния проблемы обработки текстовой информации в системах машинного перевода / Информатика, вычислительная техника и инженерное образование. – М., 2014. – С. 2-3.

¹⁶ Bromley A.G. “Charles Babbage’s Analytical Engine, 1838”. Annals of the history of computing. – Cambridge-Massachusetts: MIT Press, 1990. – P. 196-217.

tarjima qilishda soʻzlarni tanlash va chop etish mashinasi” loyihasi bilan murojaat qilgan¹⁷. Shuningdek, P.P.Smirnov-Troyanskiy tomonidan *Esperanto* tili asosida tillar oʻrtasidagi grammatik boshqaruv usuli bilan taqsimlash metodi va bilingval lugʻatni oʻz ichiga oluvchi tizim 1933-yilning soʻngi choragida yaratildi. Ushbu tizim uch bosqichni oʻz ichiga olgan: *birinchi bosqichda* muharrir asosiy tildagi soʻzlarni tartibga solib, soʻz birliklarning mantiqiy shakllarni hamda sintaktik funksiyalarini belgilaydi; *ikkinchi bosqichda* mashina leksik shakllarni tarjima qilinayotgan tilga oʻgiradi; *uchinchi bosqichda* muharrir natijani meʼyorlashtiradi¹⁸.

Mashina tarjimasi 1946-yilga kelib ilmiy fan sifatida shakllandi. Bunga Rokfeller fondining Rokfeller ilmiy departamenti direktori U.Uiver, E.But va N.Viner bilan yozishmalarda birinchi marta mashina tarjimasi tushunchasini asos qilib koʻrsatilgan¹⁹. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlar mashina tarjimasiga boʻlgan yangi bosqichni boshlab berdi.

I.A.Melchuk va Yu.Apresyanlarning metatil bu tilga oid tushunchalarning modeli, inson psixikasida tushunchalarni yozib oluvchi va saqlovchi gipotetik til ekanligi oʻz qarashlarida ifodasini topgan²⁰. Aynan shu yillar mobaynida matematik hamda mexaniklardan tarkib topgan mashina tarjimasi uchun eksperimental laboratoriya Rossiyaning Leningraddagi ilmiy tadqiqot institutida tashkil etildi.

Dunyoda mashina tarjimasi tizimlarini rivojlanishiga ikkita asosiy omil mavjud: 1) sof ilmiy; bu kompyuter tarjimasini modellashtirishning murakkabligi va koʻp funktsionalligi bilan belgilanadi; 2) mashina tarjimasining ijtimoiy maqsadda tillararo kommunikatsiyani taʼminlashga boʻlgan imkoniyatning kengligi hisoblanib, uning hajmi har yili ortib borayotgan tillararo muloqotning zaruriy sharti sifatida zamonaviy dunyoda mashina tarjimasi amaliyotining oʻsib borayotgan roli bilan bogʻliq.


Olimlarning MT tizimlari ustidan tinmay tadqiqot olib borishlari natijasida mashina tarjimasini sunʼiy intellekt sinfiga kirishiga muvaffaq boʻlishdi. Zotan, mashina tarjimasi birikmasidagi mashina soʻzi ***sunʼiy intellekt*** maʼnosida insonga xos xususiyatlar: oʻqish, tekshirish, tarjima va tahrir qilish jarayonlarining bajaruvchisi sifatida qaraladi. Kompyuter tarjimasining asosiy qismlaridan biri bu xotira maʼlumotlar bazasining mavjudligidir. Shuningdek, CAT, kompyuter yordamida tarjima qilish, mashina yordamida tarjima qilish (MAT machine-assisted translation) yoki inson tomonidan avtomatlashtirilgan tarjima MAHT (machine-aided human translation) deb ham nomlanadi. Quyidagi koʻrsatilgan rasmda CATning ishlash mexanizmi koʻrsatilgan:

¹⁷ Колосёнок П. Системы машинного перевода. // Системы машинного перевода — Lingva (msu.ru) – P. 2019.

¹⁸ Troyanskii P.P. A forgotten pioneer of mechanical translation. Machine translation. – Moscow, 2000. – P. 187-221.

¹⁹ Norbert W.C. Control and communication in the animal and the machine. – Cambridge, 1961. – P. 94-95 // https://ru.Cybernetics:_Or_Control_and_Communication_in_the_Animal_and_the_Machine.

²⁰ Апресян Ю.Д. О языке для описания значений слов. – Москва: Известия АН СССР. Серия языка и литературы, 1966. – С. 415-429.



1-rasm. Kompyuter yordamida tarjimaning ishlash mexanizmi

Neyron mashina tarjimasi NMT (Neural Machine Translation) – bu mashina tarjimasining eng yangi bosqichi sun’iy intellektni rivojlantirishdan iborat. Uning nazariyasi tabiiy tilni tushunish (NLU – natural language understanding), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP – natural language processing), mashina tarjimasi MT tarjima xotirasi va statistikaga asoslangan mashina tarjimasi (SMT – statistics-based machine translation) hamda chuqur o’rganish nazariyasi va texnikasiga asoslanadi²¹.

Hozirda MTning, asosan, to’rt turi mavjud bo’lib, ular:

1) elektron lug’atlar yordamida tarjima (machine-assisted human translation – MAHT) – inson tomonidan matnni tarjima qilishda kompyuter elektron lug’atlar va unga kiritilgan ko’rsatmalaridan foydalanish;

2) kompyuter va dasturiy ilovalar yordamidagi tarjima (computer assisted-translation – CAT) – matnni kompyuter vositasida tarjima qilish va unda anglashilgan asosiy tushunchalarni ajratishga xizmat qiladi;

3) muharrir yordamidagi mashina tarjimasi (human-assisted machine translation – HAMT) kompyuter dasturiy ta’minoti orqali amalga oshiriladigan tarjimaga inson resursi tomonidan tahrir qilish vazifasini yuklash;

4) to’liq avtomatik mashina tarjimasi (fully automatic machine translation – FAMT) – tarjimon dasturi orqali matnni tarjima hamda tahrir qilish vazifalarini amalga oshirish.

Mashina tarjima tizimlari muayyan jihatlarga ko’ra xarakterlanadi:

1) *Tillarning ishtiroki: a) ikki tilli; b) ko’p tilli; 2) tanlangan mavzuning miqdori: a) muayyan uslub va sohaga aloqador; b) bir uslub hamda ko’p sohalarga tegishli; 3) turli uslub va bir necha sohalar bilan bog’liq*²².


²¹ Halliday M. Linguistics and machine translation. In J.Webster computational and quantitative studies. Beijing: Peking University Press. – China, 2007. – P. 166.

²² Галактионов В.А., Мусатов А.М. Система машинного перевода “Кросслятор 2.0” и анализ ее функциональности для задачи трансляции знаний. – Москва, 2007. – С. 13.

Hind olimi R.Sankaravelayutan va J.Xatchins mashina tarjimasini quyidagicha ajratadi²³:

1. Qoidaga asoslangan MT – (Rule-Based MT): 1) transfer tizim (transfer-based machine translation); 2) interlingval tizim (interlingual machine translation); 3) lug‘at asosidagi tizim (dictionary-based machine translation); 2. Korpus asosidagi mashina tarjimasini – (Corpus based MT: 1) statistikaga asoslangan MT (statistics-based); 2) namuna asosidagi MT (example-based); 3. Gibrid mashina tarjimasini (Hybrid machine translation HMT). Gibrid mashina tarjimasini qoida hamda statistikaga asoslangan tarjima texnologiyasidan foydalanuvchi tizimdir. Hozirda bir nechta mashina tarjimasini kompaniyalari (Asia Online, LinguaSys, Systran, PangeaMT, UPV, Logos) mana shu tizimdan foydalanadi²⁴.

Statistik mashina tarjimasining g‘oyasi, asosan, axborot nazariyasidan kelib chiqadi. Statistik tarjima tizimlari bir vaqtning o‘zida ikkita til versiyasi (parallel korpus) tomonidan taqdim etilgan matnlar massivlaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. A.B.Smenovaga²⁵ ko‘ra, ushbu model kelajakda hujjatni tarjima qilishda tegishli chastotalarni hisobga olgan holda turli tillarda eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlardan foydalanish orqali tarjimini yaxshilash imkoniyatlarini beradi. Statistik mashina tarjimasini texnologiyasiga asoslangan mashinali tarjima tizimlarini ishlab chiquvchilari *Google, Microsoft, Language Weaver, Yandex* va boshqa sayt, dasturlarni o‘z ichiga oladi.



2-rasm. Statistik mashina tarjima tizimlarining tipik arxitekturasini PROMT kompaniyasi

Tadqiqot jarayonida MT tizimlarining bosqichma-bosqich rivojlanish strategiyalarini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shunday ekan, yillar davomida MT vazifasiga bir nechta yondashuvlar va tizimlar rivojlanishini kuzatish mumkin.

²³ Rajendran S. Prof. English to Tamil Machine Translation System Using Parallel Corpus. Amrita Universiy – Coimbatore, 2019. – P. 45.

²⁴ Hutchins J. Machine translation: past, present, future. – London, 1986. – P. 118.

²⁵ Семенова А.В., Курейчик В.М. Обзор и анализ состояния проблемы обработки текстовой информации в системах машинного перевода / Информатика, вычислительная техника и инженерное образование. – М., 2014. – С. 9.

Bugungi kunda eng rivojlangan tizimlar qoidaga asoslangan MT, (RBMT), neyron MT tizimlari va statistik MTlar hisoblanadi. Garchi ular qisman bir-biriga mos keladigan tizim sifatida tushunilsada, umumiy nuqtai nazarga ko'ra, ham statistik, ham lingvistik tizimli yondashuvlar birlashishi oqibatida MT yanada rivojlanadi. Natijada esa dasturlash va kompyuter texnologiyalarining yangi imkoniyatlari ham mashina tarjimai nazariyasi hamda amaliyotini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotning **“Tarjimani avtomatlashtirishda korpus lingvistikasining o‘rni”** deb nomlangan ikkinchi bobida kontekstual tarjimon dasturlarida korpus turlarining o‘rni va ularning qo‘llanilish konsepsiyasi, KL metodologiyasi, korpus turlarining tahlil metodlari va tarjima amaliyotida parallel korpus resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, Linguee va Reverso kontekst tarjimon dasturlarining funksional xususiyatlari tadqiq qilingan.

Hozirda korpusning bir qancha turlari yaratilgan bo‘lib ular tarjima sohasida turli xil funksiyalar orqali qo‘llaniladi. Masalan *parallel korpus*, *monolingual (bir tilli)*, *bilingual (ikki tilli)*, *general (umumiy)*, *specialized (maxsus, ixrisoslashtirilgan)*, *Ad hog*, *DIY korpuslari* kabi korpuslar funksional jihatdan boshqa turdagi korpuslardan o‘zaro farq qiladi.

M.Beyker²⁶, G.Turi, M.Shlesinger, K.Malmkjaer²⁷ va boshqa olimlar tarjimaning imkoniyatlarini o‘rganish uchun parallel korpusdan foydalanish lozimligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan va tarjimaning universalligi haqidagi quyidagi gipotezani belgilagan: a) *parallel korpusni soddalashtirish*, bunda tarjimonlar til va ma’lumotni ongsiz ravishda soddalashtiradi; b) *parallel korpusni oson tushuntirish*, bunda tarjimonlar tarjimada mazmunni yanada aniqroq qilishga intiladi; v) *parallel korpusni me‘yorlashtirish*, bunda tarjima periferiyaga emas, balki oraliq bo‘lishga intiladi.

Parallel korpusni yaratadigan tizimlar qisman kerakli misollarni emas, balki parallel jumalarni hattoki butun paragraflarni topa olish imkoniyatiga ega. Misol qilib, *“ParaConc”* parallel korpus qidiruv tizimini tavsiflash mumkin, ushbu parallel korpus so‘zlarning chastotasi va ularning birikmalari haqidagi ma’lumotlarni alohida ko‘rsatadi. Kontekstlarni tartiblovchi tizimlar tarjima holatlari statistikasidan foydalanadi. Bunday tizimlar odatda leksikograflar va professional tarjimonlar uchun mo‘ljallangan. Bunga misol qilib parallel *ingliz-xitoy* korporatsiyasini qidiradigan ikkita vebga asoslangan *DOMCAT* va *TotalRecall* tizimi yaratilgan. *DOMCAT* tizimida *Dyes* statistik testi yordamida eng mos kontekstlarni topadi (*Sorensen-Dyes koeffitsiyenti*).

$$QS = \frac{2 | X \cap Y |}{|X| + |Y|},$$

²⁶ Baker M. Corpora in translation studies: An Overview and Some Suggestions for Future Research. Target. – Amsterdam, 1995. – P. 223-243.

²⁷ Malmkjaer K. Linguistics and the language of translation. – USA, 2005.

$|X|$ va $|Y|$ mos ravishda soʻzning chastotalari, tarjima ekvivalenti hamda $|X \cap Y|$ – ushbu soʻzlarning qoʻshma paydo boʻlish chastotasini belgilaydi.

Biroq veb-interfeys bazasi reyting va tizim qanday ishlashi haqida hech qanday maʼlumotlarni oʻzida jamlamaydi.

Ikkinchi tizim *TotalRecall*-ushbu tizim ikkita imkoniyatni taqdim etadi – chastota boʻyicha va *log-ehtimollik* nisbati (log-likelihood ratio, LLR) boʻyicha tartiblash. Ushbu ikki hodisa, masalan, soʻzning paydo boʻlishi va uning tarjimasi oʻrtasidagi munosabatlarga nisbatan oxirgi oʻlchov T.Dunning²⁸ nazariyasi sifatida hisoblanadi.

$$LL(a, b) = \sum_{i \in \{a, \neg a\}, j \in \{b, \neg b\}} 2C(i, j) \log \frac{C(i, j)N}{C(i)C(j)}$$

Bu yerda $C(i, j)$ soʻz va tarjimaning qoʻshma chastotasi, $C(i)$, $C(j)$ esa mos ravishda i va j chastotalari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda *DOMCAT* va *TotalRecall* parallel korpuslari tarjima uchun aniq boʻlgan kontekstdagi tarjima variantlarini istemolchiga sifatli yetqazib berish maqsadida yaratilgan eng zamonaviy dizaynga ega tarjima korpuslaridan biri hisoblanadi.

Linguee-bu ikki tilli parallel korpus orqali yaratilgan kontekstual tarjimon dastur sanaladi. Lingueeda lugʻatni avtomatik yaratish quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi: 1) parallel korpusni oldindan qayta ishlash (iboralar jadvalini chiqarish, morfosintaktik tahlil, lemmatizatsiya, tarjima ekvivalentlarini filtrlash); 2) har bir soʻz uchun tarjima ekvivalentlarini sinonimlar qatoriga birlashtirish; 3) grammatik belgilar qoʻshish; 4) teskari tarjimalarni, yaʼni kirish soʻzning sinonimlarini hosil qilish. Bunday holda, ushbu bosqich toʻgʻridan-toʻgʻri oʻtkazmalar asosida amalga oshiriladi; 5) parallel korpusdan foydalanish misollari bilan tarjimalarning har bir guruhining illyustratsiyasi.

Linguee tarjimonining Reverso kontekstdan afzalliklaridan biri bu foydalanuvchi tomonidan murakkab leksik soʻzlar, kollokatsiyalar yoki iboralarni qidirganida misol tariqasidagi jummalarning muayyan koʻzga tashlanib turishi hisoblanadi va ushbu kollokatsiya hamda iboralarni ajratib olish, oʻqish va undan foydalanish istemolchi uchun oson kechadi. Shuningdek, mazkur lugʻat koʻrsatilgan misol tariqasidagi jummalari ustidagi boʻsh joy minimal darajaga qisqartiriladi

Olim A.Segunning fikriga koʻra, “Reverso kontekst bu til vositalarining portali, jumladan, *frantsuz, ispan, nemis, rus, portugal, xitoy, arab yapon* va boshqa tillar kabi turli til birikmalariga tarjima qilish vazifasini bajaruvchi tarjimon dasturi”²⁹ deb hisoblaydi. Reverso kontekst bilan Lingueening oʻrtasidagi funksional farqlar shundaki, Reverso avtomatlashtirilgan tarjima va

²⁸ Dunning, T. Accurate methods for the statistics of surprise and coincidence. Computational linguistics. MIT Press. – Massachusets 1999. – P. 61–74

²⁹ Segun.A... La traduction automatique par opposition à la traduction humaine: analysed’un corpus de productions réelles. International journal of humanities and social science (IJHSS). – Nigeria, 2014. – P.213-222.

til o'rganish bo'yicha ixtisoslashgan tarjimon veb-sayti hisoblanadi. Linguee esa, asosan, *yuridik, diplomatik, rasmiy matnlar bazasidan tshkil topgan kontekstual tarjimaga ixtisoslashtirilgan.*

Uchinchi bob "**Parallel korpus kontekstual qidiruv tizimining funksional imkoniyatlari**" deb nomlanadi. Unda parallel korpusda kontekstual dastur yaratish tamoyillari, parallel korpusda kollokatsiyalarni joylashtirish, qidirish usullari, undan foydalanish yo'riqnomalari hamda ilmiy va publitsistik matnlarning leksik xususiyatlari hamda kontekstual tarjima tahlillari, ingliz va o'zbek tillarida kontekstual tarjimon dasturini yaratish bosqichlari, Sketch engine platforfamasida parallel korpus yaratish strategiyalari tahlil etilgan. Tadqiqot obyekti hamda predmeti hisoblangan parallel korpus kontekstual qidiruv tizimlari, ingliz va o'zbek tillari ilmiy hamda publitsistik parallel matnlar korpusi kontekstual tarjima xususiyatlariga e'tibor qaratildi. Shunga ko'ra, parallel korpusda avtomatlashtirilgan kontekstual tarjimon dasturi mexanizmlarining kichik bazasini shakllantirish uchun Sketch engine platformasi tanlandi.

Kollokatsiya ikki va undan ortiq so'z bilan birikishi natijasida hosil bo'ladigan hamda alohida komponentlarni qayta ko'rib chiqish natijasida so'zlarning ma'nolarini o'zgartirish jarayonida hosil bo'ladi. O'.Dell va M.Kartilarning fikriga ko'ra, kollokatsiya so'zlarning tabiiy birikmasi sifatida anaiqlanadi. Bu ingliz tilidadgi so'zlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini anglatadi. Masalan, *go hand in hand, as do commit and crime, blond goes with hair, and rain is heavy.* O'.Dell va M.Kartil kollokatsiyani uchta toifaga ajratishgan. Ular *kuchli birikmalar (strong collocations), qat'iy belgilangan birikmalar (fixed collocations) va zaif birikmalar (weak collocations).*

P.Neymark kollokatsiyani "*matn va leksikaning nervlari*" deb hisoblaydi"³⁰. Kollokatsiyalar *leksik va grammatik* kategoriyalarga bo'linadi. Leksik va grammatik kollokatsiyalarni quyidagi usullar orqali bir-birdan ajratish mumkin. Leksik kollokatsiyalar *faqat fe'llar sifatlar, otlar va qo'shimchalardan (verbs, adjectives, nouns, and adverbs)* va turli xil birikmalar asosida tuziladi. Grammatik kollokatsiyalarning tuzilishi *fe'l, sifat yoki ot (verbs, adjectives, or nouns combined with a preposition or a grammatical structure)* kabi so'zlarni bosh gap yoki grammatik tuzilishi bilan birlashtiradi.

Shunday ekan, tadqiqoqtimizda ilmiy va publitsistik matnlardan tashkil topgan matnlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan maqolaning annotatsiya bo'limidagi "*deal with*" kollokatsiyaning matndagi ma'no mushtarakligi tahlil qilindi. Bunda tarjima jarayonida mazkur kollokatsiya bir necha ma'noda kontekstual tarjima qilinganligini kuzatishimiz mumkin. "***Deal with***" kollokatsiyasining tarjima variantlarini quyidagi 1-jadvalda ko'rish mumkin:

³⁰ Newmark P.A. Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall International press, 1988. – P. 186.

“deal with” kollokatsiyasining kontekstual tarjimasini

<i>The article deals with</i> the aesthetic views of English writer Oscar Wilde	<i>Maqolada</i> ingliz yozuvchisi Oskar Vayldning estetik qarashlari <i>o‘rganilgan.</i>
<i>This article deals with</i> the issues of fiction texts, their specific features and multidimensional structure	<i>Ushbu maqola</i> badiiy matnlar va ularning ko‘p qirrali tarkibi tahlili masalalariga <i>bag‘ishlangan.</i>
<i>This study deals with</i> the determination of pedagogical methods, development of the technology of formation of aesthetic qualities of a person with the help of a foreign language during the educational process and outside the educational process; moreover, the criteria for the formation of civic qualities of students were determined.	<i>Mazkur maqolada</i> aynan texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarida yuksak insoniy fazilatlarni rivojlantirish tamoyillari va estetik tarbiyani shakllantirishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish yo‘llari hamda ishlab chiqilgan texnologiyalar, mezonlar xususida batafsil <i>so‘z yuritiladi.</i>
<i>The article deals with</i> the information on religiously marked allusions, their symbolic aspects in English literary texts and analysis from the perspectives of cognitive linguistics	<i>Ushbu ishda</i> diniy markerlangan allyuziyalar, ularning ingliz badiiy matnlaridagi ramziy ko‘rinishlari haqida ma’lumot berilgan hamda ushbu til birliklari kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan <i>tahlil qilingan.</i>
<i>The study deals with</i> the meanings and features of the terms “dialogue” and “dialogic speech”.	<i>Maqola</i> “muloqot” va “dialogik nutq” atamalarining mazmuni hamda xususiyatlarini <i>ochib bergan.</i>
<i>This article deals with</i> the conditions for the emergence of psycholinguistics, that is, the direction of lingu-psychology, its uniqueness and its necessity today.	<i>Ushbu maqolada</i> psixolingvistik, ya’ni lingvopsixologiya yo‘nalishining yuzaga kelish shartlari, o‘ziga xosligi va bugungi kundagi zarurati xususida <i>so‘z boradi.</i>

Yuqorida keltirilgan **“deal with”** kollokatsiyasi bilan keltirilgan tahlilda ilmiy maqolada tarjimaning bir nechta tarjima ma’nolarini ko‘rish mumkin. Ya’ni **“deal with”** kollokatsiyasi ilmiy maqolada **“so‘z yuritmoq, o‘rganmoq, bag‘ishlamoq, tahlil qilmoq va ochib bermoq”** kabi kontekstual tarjima usulidan foydalangan hamda ushbu kollokatsiyaning bir necha ma’nolarini berish orqali tarjima variantlarini muallif o‘z maqolasida aks ettirgan. Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, **“deal with”** kollokatsiyasini toifaga ajratadigan bo‘lsak, **“deal with”** grammatik *cheklangan* kollokatsiya toifasiga kiradi. Cheklangan kollokatsiyalar faqat bir tarkibiy qismdan iborat bo‘lib bir fe’lning o‘zi bir necha ot yoki predloglar bilan birlashadi. Shuningdek, kollokatsiyani tarjima amaliyotida bir necha muhim xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblangan desemantlashgan **“point”, “matter”, “thing”, “discuss” “analyse”, “examine” “deal”** ot va fe’l so‘z turkumlarining leksik ma’nosi va kontekstual tahlillarini parallel korpusda ochib berishdan iborat. Desemantizatsiya bu – **“lotincha de-prefiksidan, ajratish, bekor qilish-t-yunoncha semantikos-bildiruvchi”** degan ma’noni bildirib, asosan, tarjima jarayonida leksik-semantik ma’noni yo‘qotish, o‘zgarib borish kabi ma’noni anglatadi.

Ilmiy uslubga mansub maqolalarning annotatsiya bo‘limi hamda publitsistik uslubda qo‘llaniladigan so‘zlarning leksik ma’nosi va kontekstual tarjimasini

tahlilga tortish nazarda tutilgan. Shu nuqtayi nazardan mazkur soʻzlarni tarjima qilishda kontekstning oʻrni juda muhim hisoblanadi. Buni turli **“point”, “matter”, “thing”, “discuss” “analyse”, “examine” “deal”** ot va feʼl soʻz turkumlarining kontekstual tarjima jarayonida kuzatish mumkin. Ayrim hollarda mazkur soʻzlar faqat grammatik vazifani bajaradi va bular tayanch soʻzlar deb ataladi. Masalan, **“poor (little) thing”** birikmasida, **“thing”** oti faqat asosiy soʻz boʻlib, tayanch soʻz sifatida ishlatiladi. **“Poor”** kombinatsiyaning oʻzi oʻzbek tiliga **“bechora”** deb bir soʻz bilan tarjima qilinadi. Xuddi shu gap ingliz tilida **“just the thing”** degan maʼnoni anglatuvchi oʻzbek tilidagi tarjimasi **“shunday narsa, kerak boʻlgan narsa”** kombinatsiyasiga nisbatan ham toʻgʻri keladi. Bu turdagi maʼnolarning noaniqligi sababli mazkur soʻzlar juda keng moslikka ega boʻladi, bu esa, oʻz navbatida, tarjima jarayonida yanada keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ularning tarjimasi, qoida tariqasida, ular ishlatilgan kontekstga bogʻliq. Shu nuqtayi nazardan ham kontekstual tarjima ushbu jarayondagi duch keladigan muammolarni yechishga yordam beradi. Shuningdek, tarjimaning aniq variantlarini foydalanuvchiga taqdim qiladi. Bunga yuqoridagi soʻzlarning kontekstual tarjimalarini tahlil qilish orqali koʻrish mumkin. **“Point”** ot soʻz turkumining kontekstual tarjimasi parallel matnlarda quyidagi 2-jadvalda tarjima turlari tahlil qilindi.

2-jadval

“Point” ot soʻz turkumining kontekstual tarjimasi

<i>The lawyers may be right in questioning the legality of some minor points.</i>	<i>Yuristlar baʼzi kichik qonun hujjatlarining qonuniyligini haqli ravishda shubha ostiga qoʻyishadi.</i>
<i>This point became particularly apparent in analyses of the Chicago school data.</i>	<i>Bu savol Chikago maktabidagi maʼlumotlarini tahlil qilishda yaqqol namoyon boʻldi.</i>
<i>From their point of view, the main function of the law is to limit the power of the authorities and the courts to inflict evils upon the individual citizen and to restrict his freedom.</i>	<i>Ularga koʻra, qonunning asosiy vazifasi hokimiyat va sudlarning har bir fuqaroga yomonlik qilish hamda uning erkinligini cheklash vakolatlarini chegaralashdan iborat.</i>
<i>Race is, of course, a sensitive point of reference in American society, and a reference point that can become cute for minority youth during early to middle adolescence.</i>	<i>Poyga, shubhasiz, Amerika jamiyatida nozik nuqta hisoblanib, u erta yoshdan oʻrta oʻsmirlik davridagi ozchilik yoshlar orasida keskin kuzatilishi mumkin boʻlgan nozik jihatlardan biridir.</i>
<i>Patterson’s commitment to the ideal of integration implies his belief that such a tipping or turning point exists.</i>	<i>Pattersonning integratsiya idealiga sodiqligi uning bunday burilish nuqtasi mavjudligiga ishonchi komil ekanligini bildiradi.</i>

Ushbu **“matter”** leksik birlikning ham bir qancha maʼnolarni anglatuvchi kontekstual tarjima misollarini keltirish mumkin. **“Matter”** leksik birlikning oʻzbek tilidagi tarjimasi **“vaziyat”, “holat”, “mazmun”, “ish” “materiya”, “modda”** va **“savol”** kabi maʼnolarga ega (*wisdom dictionary*). Biroq quyida keltirilgan misollardan koʻrinadiki, koʻpincha maʼlum bir desemantlashgan soʻzning kontekstual maʼnosi yuqoridagi maʼnolarning birortasiga mos kelmaydi. Koʻpincha adekvat tarjimaga erishish uchun ushbu leksik birlik oʻzbek tiliga toʻgʻridan toʻgʻri tarjima

qilinmaydi, ular kontekstual tarjima qilinadi. Mazkur **matter** leksik birlikning kontekstual tarjima misollari parallel matnlarda 3-jadvalda quyidagi keltririlgan:

3-jadval

“Matter” leksik birlikning kontekstual tarjimasi

<i>It would be a delicate matter to express an opinion about the creativity of younger men.</i>	<i>Yosh xodimlarning ijodi haqida fikr bildirish juda nozik masala.</i>
<i>It has much less experience in this matter than the classical countries of bureaucracy, France, Germany, Austria, and Russia, acquired.</i>	<i>Bu borada Fransiya, Germaniya, Avstriya va Rossiya kabi klassik byurokratiya davlatlariga qaraganda bu davlatning tajribasi ancha kam.</i>
<i>As head of a bureau, he may have the power to alter some minor rules and some matters of internal procedure</i>	<i>U Agentlik rahbari sifatida muayyan qoidalarga va ichki tartib-qoidalarga taalluqli bo‘lgan moddalarga kichik o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo‘lishi mumkin.</i>
<i>In violating the law you are perhaps worse than a good many of the racketeers, no matter how good your intentions may be.</i>	<i>Qanchalik yaxshi niyatda bo‘lishingizdan qat’i nazar agar qonunni buzsangiz o‘sha reketlardek bo‘lgan bo‘lasiz.</i>
<i>But it is another matter with the local chief of a government agency.</i>	<i>Mahalliy davlat organi rahbari bilan vaziyat butunlay boshqacha.</i>

“Thing” leksik birligining kontekstual tarjima tahliliga keladigan bo‘lsak, yuqorida ko‘rib chiqilgan “matter” leksik birlikga qaraganda o‘zining kontekstual ma’nosi matnlarda yanada aniqroq bo‘ladi. Lug‘atda ushbu “thing” so‘zi asosiy “narsa”, “mavzu”, “ish” (*wisdom dictionary*) kabi tarjimalarni beradi. Biroq kontekstga asoslanib, aksariyat hollarda berilgan so‘z odatda mustaqil birlik sifatida tarjima qilinmaydi. Buni bir nechta misollar orqali 4-jadvalda quyidagicha tahlil qilish mumkin:

4-jadval

“Thing” leksik birlikning kontekstual tarjimasi

<i>Within a business concern, such things can be left without hesitation to the discretion of the responsible local manager</i>	<i>Biznes doirasida, mahalliy hokimiyatlar bu kabi savollarni ikkilanmasdan ko‘rib chiqishi mumkin.</i>
<i>The same thing is essentially valid for a democratic government.</i>	<i>Demokratik hukumat uchun ham xuddi shunday bo‘ladi.</i>
<i>How can these two things, one good, the other bad, be linked together?</i>	<i>Biri yaxshi va boshqasi yomon kabi bu ikki qarama qarshilikni qanday bir-biriga bog‘lash mumkin?</i>
<i>Government efficiency and industrial efficiency are entirely different things</i>	<i>Hukumat faoliyati va sanoat ko‘rsatkichi bir-biridan butunlay farqlidir.</i>
<i>It may well be that the greatest thing in Atlantis is its better system of government.</i>	<i>Atlantisning eng katta yutug‘i uning yaxshi ishlaydigan boshqaruv tizimi bo‘lishi mumkin.</i>
<i>There are many things about government administration that need to be reformed</i>	<i>Hukumat boshqaruvida isloh qilinishi kerak bo‘lgan juda ko‘p tizimlar mavjud.</i>
<i>However, it is quite a different thing if an officeholder evades the duly promulgated laws of the nation for the benefit of the “State”.</i>	<i>Agar mansabdor shaxs “davlat” manfaati uchun tegishli tarzda e‘lon qilingan qonunlardan qochsa, unda bu butunlay boshqa vaziyat.</i>

Tadqiqotning ikkinchi tahlilidan iborat bo‘lgan ilmiy maqolalardan tarkibidan tashkil topgan annotatsiyalarning ingliz va o‘zbek tillaridagi kontekstual tarjimalari tahlil qilindi. Bunga ilgari zikr qilingan *“discuss”* *“analyse”*, *“deal”* kabi so‘zlarning kontekstual tarjima variantlari tahlilga tortildi. *“Discuss”* fe‘lining lug‘atda *“muhokama qilmoq”*, *“tahlil qilmoq”*, *“ko‘rib chiqmoq”* kabi tarjima variantlari mavjud (wisdom dictionary). Ko‘pincha ilmiy matnlarning tarjima variantlarida *“discuss”* so‘zi yuqoridagi lug‘atda keltirilgan ma‘nolarda tarjima qilinadi, biroq ba‘zan mazkur so‘z ilmiy matnlarda boshqa ma‘nolarda kelishi kuzatildi. Ushbu so‘zning kontekstual varianni 5-jadvalda quyidagi ma‘nolarda tarjima qilingan.


5-jadval

“Discuss” fe‘lining kontekstual tarjimasi

<i>This article discusses the economic efficiency of the world’s most popular interactive TV projects.</i>	<i>Mazkur maqolada jahonda keng ommalashgan interaktiv teleloyihalarning samaradorlik masalalari ko‘rib chiqildi.</i>
<i>The work discusses the views on cognitive linguistics, its subject, and tasks, the essence of the concept of “cognitivism”, the problem of “concept” and “cognition”, and the features of cognitive linguistics in contrast to traditional linguistics.</i>	<i>Mazkur maqolada so‘nggi yillardagi tub burilish bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan kognitiv tilshunoslikka doir fikrlar, uning o‘rganish obyekti va vazifalari, “kognitivizm” tushunchasining mohiyati, unda “tushuncha” va “konsept” muammosi hamda kognitiv tilshunoslikning an‘anaviy tilshunoslikdan farqli belgilari, kognitiv tilshunoslikning yo‘nalishlari xususida so‘z yuritiladi.</i> https://journal.fledu.uz
<i>This paper discusses the work of A. Semyonov was a scientist who made a significant scientific and practical contribution to the development of the science of the Uzbek and Tajik peoples.</i>	<i>Ushbu maqolada o‘zbek va tojik xalqlari ilm-fani rivojiga ilmiy-amaliy jihatdan katta hissa qo‘shgan olim A.Semyonovning Navoiyshunoslik, manbashunoslik faoliyati o‘ganildi.</i> https://journal.fledu.uz

Shunday qilib, ilmiy maqolaning tarjima sifati muloqot maqsadiga erishish darajasiga, asl tildagi matnning maqsadli tildagi tarjimasiga maksimal mazmun-mohiyatini kontekstual tarjima usuli orqali amlaga oshirish tarjima aniqligi va ilmiy hamda publitsistik matnning ma‘no-mazmunining umumiylikiga bog‘liq degan xulosaga keldik. Mazkur tarjima matnlarni parallel korpusda kontekstual tarjimon dasturining kichik bazasini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur ikki tilli matnlarni parallel korpusini yaratish uchun Sketch Engine platformasida joylashtirish orqali samarali natijaga erishish mumkin.

Sketch Engine bu korpus bo‘yicha yetakchi platformalarinig biri hisoblanib, lug‘atshunoslikda keng qo‘llanilib kelmoqda. Sketch engine ikki xil funksiyadan iborat: *dasturiy ta‘minot hamda veb-xizmat*. Mazkur, dasturiy ta‘minot va veb-xizmat ko‘p sonli oldindan yuklangan hamda foydalanishga tayyor korpuslarni va erkin korpus yaratish, o‘rnatish va boshqarish vositalarini hamda vazifalarni o‘z ichiga oladi. Sketch Engine, asosan, quyidagi xizmatlarni taqdim etadi va ular 3-rasmda quyidagicha keltirilgan:



3-rasm. Sketch engine platformasining vazifalari

Shu bilan birga, Sketch Engine ko‘p tillarda teglash vositalarini birlashtirish, terminalogiyani qo‘shish, kollkatsiyalar, idiomalar bilan ishlash, so‘z eskizlari shuning bilan bir qatorda tezaurslarni yaratsih va uni foydalanuvchilar uchun ishlash mexanizmini qulay tarzda ochib berish ustida ko‘plab imkoniyatlari mavjud. Hozirda yuqorida keltirib o‘tilgan imkoniyatlar o‘z natijasini bermoqda, bunga hozirda juda ko‘plab foydalanuvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan *Brown* korpusi va *enTenTen* korpusini misol qilishimiz mumkin.

Hozirda Sketch Engine platformasida joylashtirilgan bracha ma’lumotlar quyidagi raqamalarda keltirilib o‘tilgan. Ulardan:

Tokens – 17,329,301
So‘zlar – 15, 513,307
Jumlalar – 615, 181
Paragraflar – 223,394
Hujjatlar – 8,016

Tadqiqotda tarjimani avtomatlashtirishda parallel korpusda kontekstual tarjima dasturini Sketch Engine platformasida yaratish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1) ilmiy va publitsistik matnlar to‘plangan ikki tilli ingliz va o‘zbek tillaridan tashkil topgan ma’lumotlar bazasi *Microsoft Exel* jadval ko‘rinishida shakllantirildi, mazkur matnlarni shakllantirishdan maqsad *Microsoft Exelda*, asosan, ikki tilli matnlardan yig‘ilgan xotira bazasi yaratish ko‘zda tutildi;

2) yig‘ilgan ma’lumotlarni tarjima muvofiqligi qayta tekshirib chiqildi;

3) tekshirilgan tarjimalar muvofiqligi bir biriga mos kelgach kompyuterda ma’lumotlar bazasi yaratildi.

Ma’lumotlar formati parallel korpus uchun *data* formatida tasvirlangan formatda bo‘lishi kerak. Shunday ekan, biz ma’lumotlat formatini *data* ko‘rinishida keltirib olamiz. Ushbu vazifalar bajarilgandan so‘ng ikki tilli parallel korpusni yaratish uchun bizga keyingi bosqichlarni amalga oshirishiz muhim hisoblanadi. Ular quyidagilar: 1) korpus asboblari panelida “*new corpus-yangi*

korpus” tugmasini belgilash orqali; 2) multilingual tugmasini belgilash orqali; 3) korpus nomini kiritish va faylni tanlash orqali; 4) keyingi ekranda tillar to‘g‘riligini tekshirish orqali; 5) “*next*” buyrug‘ini belgilash orqali; 6) yaratilgan ikki tilli parallel korpusni *My corpus* bo‘limidan aniqlash orqali yaratilgan korpusini tekshirish orqali jarayonni tugallanadi.

Bundan tashqari Sketch engine platformsi boshqa turdagi formatlar bilan ham amalga oshirish imkoniyati mavjud. Masalan. *XLIFF* (v. 2.0 va undan yuqori) va *CSV*, *TSV*, *XLSX* bular jadval ma’lumotlarini saqlash uchun ishlatiladigan oddiy matnli hujjat turi hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijasida yuqoridagi ko‘rsatmalardan foydalanib ingliz va o‘zbek tillarida ilmiy hamda publitsistik matnlarning kontekstual tarjima parallel korpusi interfeysi yaratildi. Ushbu dasturning interfeysi va undan foydalanisusullari quyidagi 4-5 ramlarda ko‘rsatib o‘tilgan.



4-rasm. Parallel korpus interfeysi



5-rasm. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy matnlardan tashkil topgan parallel korpus interfeysi

Ingliz va o‘zbek tillarida ilmiy hamda publitsistik matnlardan iborat bo‘lgan kontekstual tarjima dasturi parallel korpus orqali Sketch Engine platformasining mexanizmi shakllantirildi. Ushbu dasturdan foydalanish yo‘riqnomasi quyidagicha belgilandi: 1) *Sketch Engine platformasi saytiga kirish*; 2) *saytga elektron manzil orqali a‘zo bolish*; 3) *platformadan “parallel corpora” bo‘limiga o‘tish*; 4) *“parallel corpora bo‘limidan “English Uzbek contextual translation” bo‘limiga o‘tish*; 5) *“English Uzbek contextual translation” interfeysidan so‘z qidirish*.

Yuqoridagi yaratilgan parallel korpusda kontekstual tarjimon dasturining yaratilishi negizida mashina tarjimasining statistik usuli muhim o‘rin tutadi.

Kontekstual tarjimon dasturlarini yaratish va undan samarali foydalanish uchun mashina tarjimasining statistik usulidan foydalanishdan sabab Sketch Engine platformasida yaratilgan parallel korpus ma‘lumotlari ingliz hamda o‘zbek tillarida internetda kontenti va *“e-library”* mavjud emas. Shu sabab ham barcha ma‘lumotlarni *Microsoft Excel*da kichik baza xotirasini yaratish maqsadida platformaga joylashtirildi.

Mazkur parallel korpusda umumiy qiymati 1658 so‘zdan iborat ingliz va o‘zbek tillarida ilmiy hamda publitsistik matnlardan tashkil topgan matn hamda uning tarjimalari dasturda joylandi. Shundan, 742 so‘z ingliz tilidan tashkil topgan qolgan 916 ta so‘z esa o‘zbek tilidagi matnlarda tashkil topgan. Ingliz tilidagi so‘zlar sonining o‘zbek tilidagiga qaraganda kamligi shundan iboratki, o‘zbek tilidagi leksik so‘zlarning tarjima jarayonida bir necha ma‘noni hosil qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Tarjimoni o‘rgatishda korpusga asoslangan yondashuv so‘nggi o‘n yil ichida jadal rivojlandi, hozirda parallel korpus, ko‘p tilli korpus (multilingual corpus) va taqqoslanadigan korpuslardan (comparable corpus) foydalangan holda tadqiqotlar natijasida ko‘plab ma‘lumotlar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, parallel korpus, tarjima tadqiqotlari va ta‘lim sohasida qimmatli ma‘lumot manbalari ekanligini isbotlaydi.

XULOSA

1. Mashina tarjimasi, tarixi va yaratilishi bosqichlari ilmiy nazariy jihatdan keng miqyosda o‘rganilishi dolzarblilik kasb etadi. Bunda mashina tarjima tizimlari muayyan jihatlarga ko‘ra xarakterlanadi. Ular: 1) tillarning ishtiroki: a) ikki tilli; b) ko‘p tilli; 2) tanlangan mavzuning miqdori: a) muayyan uslub va sohaga aloqador; b) bir uslub hamda ko‘p sohalarga tegishli; 3) turli uslub va bir necha sohalar bilan bog‘liqlik jihatlari bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, mashina tarjimasi quyidagi tizimlarga ajratilgan hamda har bir tizim o‘zining kichik va tarjima jarayonida o‘ta muhim vazifani bajaradigan turlari mavjud. Ular, 1. Qoidaga asoslangan MT – (Rule-Based MT); 2. Korpus asosidagi mashina tarjimasi – (Corpus based MT); 3. Gibrud mashina tarjimasi – (Hybrid MT). Bugungi kunda statistik MT tizimidan samarali foydalanilmoqda, lekin kelajakda istiqboli sun‘iy intellekt hamda neyro MT tizimlaridan foydalanish ehtimoli mavjud.

2. MT, asosan, uch bosqichni, dastlab lug‘atga mos keladigan mashina tarjimasi, korpus statistikasiga asoslangan kompyuter tarjimasi, so‘ngra so‘ngi

yillarda asosiy texnologiya sifatida sun'iy intellekt bilan neyro-mashina tarjimasigacha bo'lgan bosqichlaridan tashkil topadi. Hozirda lug'at asosida tarjima qilinadigan mashina tarjimasidan foydalanish darajasi ancha pasaygan, uning o'rniga korpus statistikasiga asoslangan kompyuter tarjimasidan foydalanish jadal rivojlanmoqda. Kelajakda asosiy texnologiya sifatida sun'iy intellekt hamda neyro-mashina tarjimasidan foydalanish insoniyat uchun tildagi va tarjimadagi muammolarni yechimi sifatida xizmat qiladi.

3. MT tizimlarining jadal rivojlanish mobaynida korpusning paydo bo'lishi va tarjima bozorining tarjima samaradorligiga bo'lgan talabining ortishi bilan CAT tarjima xotiralari hamda terminologiya ma'lumotlar bazalarini boshqarishni yaxshilash uchun mashinali tarjima dasturlarini korpus platformalari orqali parallel tarzda qo'llanilishi natijasida KL hamda MT ning rivoji uchun burilish nuqtasi bo'lganligini alohida inobatga olish zarur.

4. Tadqiqotda korpus turlarining bir qancha turlari, xususan, DIY korpus, comparable korpus, stable korpus, ad hoc korpus va boshqa korpus turlarining funksional jihatlari ilmiy nazariy jihatdan keng yoritilib, mazkur korpuslarning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari keng yoritildi. Xususan, DIY korpusi internet hujjatlari to'plami, aniqrog'i *HTML* tilidagi veb-sahifalardan tuziladi. DIY korpusi ochiq korpus hisoblanib undan farqli o'laroq Ad hoc korpusi esa tarjimon tomonidan ma'lum bir tarjima paytida duch kelgan muayyan muammoni tekshirish uchun qisqa vaqtda tuziladi. Ad hoc korpusi odatda ko'p matnlarni o'z ichiga olmaydi. DIY va Ad hoc korpuslarning o'xshash jihatlari bu ikki korpus tarjimini amalga oshirish uchun tuziladigan virtual korpusdir. Comparable corpus ikki yoki undan ortiq bir tilli tarjimalar to'plamidagi korpus bo'lib, odatda, har tabiiy til boshqa tilda bir xil printsiplarga asoslanib muvofiq quriladi. Ushbu korpusning ahamiyatli jihatlardan biri matnlardagi ma'lumotlar bir xil bo'lishi mumkin, lekin ko'zlangan tarjimalar natijasi boshqa tillar bilan solishtirganda har xil hosil bo'ladi. Stable korpus barqaror korpuslar turlariga mansub, unda ko'pincha faqat o'z interfeyslariga kiritilgandan so'ng taqdim etiladi. Stable korpora DIY, AD hoc, Comparable va boshqa turdagi korpuslardan farqli jihati shundaki, stable korpus tarjimonlarning ehtiyojlariga moslashtirilmaydi hamda tarjimadan foydalanuvchilar uchun maxsus qurilmaydi va tarjima istemolchilariga matnlarni tarjima qilishda ushbu stable korpusdan foydalanish tavsiya etilmaydi.

5. Korpus lingvistikaning eng asosiy vazifalaridan biri bu konkordansda kollakatsiyalarni (*collocations*) qidirish hisoblanadi. Kollakatsiyani korpusdagi muhim o'rin tutishi uch turga strong (kuchli), fixed (qat'iy belgilangan) va weak (kuchsiz) kollokatsiya turlari orqali aniqlanib, uning asosiy vazifalaridan biri bu tarjimadagi tarkibiy qismlaridan birining lug'aviy ma'nosini saqlab qolishdir. Tadqiqotda ingliz tilidagi kollokatsiyalarni o'zbek tiliga o'girishda ilmiy va publitsistik matnlardagi materilallardan foydalangan holda tahlil qilinganligi natijasida ingliz hamda o'zbek tillarida kontekstual tarjimon dasturini parallel korpusda kollokatsiya ikki tildagi jummalarni aniq tarjima ma'nosini topishda muhim vazifani amalga oshiradi.

6. Ilmiy va publitsistik uslubda yozilgan matnlar tarjimada e'tibordan chetda qoldirilmaydigan bir qator xususiyatlari mavjud. Shunga qarab, ilmiy va publitsistik matnlardagi asliyat tildagi matnning ko'zlangan tildagi tarjimasi muqobiligi aniqlanadi. Ilmiy va publitsistik matnlarni tarjima qilishdagi asosiy muammolardan biri bu terminalogiyadir. Tarjimon uchun bitta so'zdan iborat bo'lgan termini tarjima qilish ancha mashaqqatli bo'lishi mumkin. Ushbu muammoning yechimi quyidagi tematik lug'atlar, xalqaro belgilar, va umume'tirof etilgan atamalar bilan birlashtirib tekshirishi kerak. Ilmiy va publitsistik matnlarning atamalardan tashqari tarjima amaliyotida quyidagi vazifalari mavjud. 1) Bir ma'nolilik – ilmiy va publitsistik matnlarda so'z hamda atamalarni ikki marta talqin qilishga yo'l qo'ymaslik; 2) turli olmoshlardan, foydalansih – ingliz tilidagi maqolalarda ko'pincha birinchi shax birlikdagi olmoshlarni toppish mumkin. O'zbek tilida esa “biz” olmoshini qo'llash mumkin; 3) aniqlilik – ilmiy va publitsistik matnlar iloji boricha aniqroq, manbaga yaqinroq tarjima qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu vazifalar ilmiy va publitsistik matnlarni tarjima jarayonida duch kelgan muammolarga yechim sifatida xizmat qiladi.

7. Ilmiy va publitsistik matnlarda tez-tez uchraydigan desemantlashtirilgan so'zlarning leksik ma'nosi hamda kontekstual tarjimasi tarjimani avtomatlashtirishda faol qo'llanilib, asosan, leksik-semantikaga oid ot va fe'l so'z turkumlarida ko'proq uchraydi. Desemantizatsiya fe'l va ot so'z turkumlaridagi leksik ma'noning asta-sekin yo'qolishi natijasida so'zning leksik ma'nosini grammatizatsiyaga olib keladi. Ayrim hollarda ot va fe'l so'z turkumlarini kontekstual tarjima qilganda faqat grammatik vazifani amalga oshirib tayanch so'zlar sifatida qaraladi. Desemantlashgan fe'l va ot so'z turkumlari kontekstual tarjimani amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Parallel korpusning afzalligi shundaki, ular standartlashtirilgan ikki tilli terminologiyaga to'la ixtisoslashgan parallel hujjatlardir. Korpusdan olingan qo'shma so'zlar ko'p jihatdan terminologik elementlardir. Shuning uchun tarjima birliklari va tarjima ekvivalentlari o'rtasida juda izchil munosabat mavjud. Bu korpusni tahlil qilishni osonlashtiradi. Parallel korpus yaratishning eng oddiy usuli bu dastlab ma'lumotlarni *Excel elektron* jadvalda joylashtirish orqali tarjima xotirasini yaratish bilan boshlanadi. Bunga sabab ingliz va o'zbek tillarida ilmiy hamda publitsistik matnlarning tarjima variantlari internet libraryda mavjud emasligidadir. Trajima xotirasini yaratishning ikkinchi metodi bu tarjima xotirasi formati hisoblanib, ular *TMX* yoki *XLIFF* yordamida tarjima xotirasi yartiladi. *XLIFF ning TMX, CSV, TSV va XLSX lardan farqli jihati XLIFF* maxsus dasrturlarda ochiladi va v. 2.0 va undan yuqori formatdagi ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniladi. *TMX bilan CSV* esa to'g'ridan-to'g'ri *Microsoft Excel, Open Office, Google Documents* va boshqa veb platformalarda ochiladi. *XLIFF* tilni avtomatlashtirishda ikki tildagi matnlarni kodlash bilan belgilanadi.

9. Tadqiqotda parallel korpus funksiyasini ilmiy nazariy o'rgangan holda Sketchengine platformasida tarjimon dastur yaratishning mezonlari ilmiy jihatdan o'rganilib, mazkur platformada korpus va parallel korpus yaratish xususiyatlari aniqlanib, parallel korpusda aynan kontekstual tarjimon dasturlarini yaratish

bosqichlari ilmiy asoslandi. Sketchengine platformasi kelajak korpuslar dunyosi talqinida ko‘rib kelinayotganligi til korpuslari hamda tarjima dasturlarini o‘zida jamlaydigan yagona yirik platformaga ega bo‘lishiga umid berayotganiga alohida e‘tibor qaratish zarur.

10. Tadqiqotimiz natijasida <https://auth.sketchengine.eu> platformasida parallel korpusda kontekstual tarjimon dasturining ilk mexanizmi yaratildi. Mazkur dasturning kontenti ilmiy va publitsistik uslubga doir matnlarning kontekstual ingliz hamda o‘zbek tillariga tarjima qilingan parallel bazasi shakllantirildi. Ingliz va o‘zbek tillarida ilmiy hamda publitsistik matnlardan tashkil topgan parallel korpusda kontekstual tarjimon dasturi Sketch Engine platformasiga joylashtirildi. Shuningdek, mazkur dasturdan foydalanish yo‘riqnomasi tuzildi.

11. Sketch Engine platformasidagi 3-ta yo‘riqnomasidan farqli ravishda quyidagi tadqiqotda Sketch Engineni parallel korpusda kontekstual tarjimon dasturining 5 ta: Sketch Engine platformasiga a‘zo bo‘lish, dastur interfeysidan turli korpus va tarjimon dasturlaridan parallel korpus bo‘limini tanlash, parallel korpus bo‘limidan, *english-uzbek contextual translation* dasturini izlash, mazkur tarjimon dastur platformaning chap tomondagi burchak qismidan ajratgan holda platforma interfeys markaziga olib o‘tish va dasturdan foydalanish bosqichlari ishlab chiqildi. Sketch Engine platformasida yaratilgan parallel korpusda kontekstual tarjimon dasturi kompyuter lingvistikasi sohasida tarjimadan samarali foydalanish, insoniyat uchun hamda ba’zi soha vakillari uchun manba va asosiy tarjimon dastur sifatida samarali xizmat qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

ХАЙТКУЛОВ ЗАХРИДДИН ХАЗРАТКУЛ УГЛИ

**ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ОСОБЕННОСТЬ ПАРАЛЛЕЛЬНОЙ
КОРПУСНОЙ КОНТЕКСТУАЛЬНОЙ ПОИСКОВОЙ СИСТЕМЫ В
АВТОМАТИЗАЦИИ ПЕРЕВОДА**

10.00.11 – Теория языка. Прикладная и компьютерная лингвистика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № В2023.1.PhD/Fil3237.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Эргашева Гули Исмоил кизи
доктор филологических наук, доцент


Официальные оппоненты: Хайруллаев Хуршид Зайниевич
доктор филологических наук, профессор
Атабоев Нозимжон Бобожон угли
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится "26" апреля 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за № 1). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92, e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан "13" апреля 2024 года.
(Реестр протокола рассылки № 1 от "13" апреля 2024 года).



Г.Х. Бакнева
Председатель Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

Х.Б. Самигова
Ученый секретарь Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

Ж.А. Якубов
Председатель Разового научного семинара при Разовом научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании обработка естественного языка, компьютерный перевод языка оригинала стали широко использоваться в практике математической лингвистики и машинного перевода. Создание ряда двуязычных и многоязычных электронных программ-переводчиков в информационно-поисковой системе, корпусной лингвистике и машинном переводе по перспективным научным направлениям, связанным с применением информационных технологий в лингвистике, расширение механизмов перевода программ за счет корпусных типов, обусловили необходимость его внедрения в практику. Ведь это определяет практическую значимость возможностей искусственного интеллекта по созданию различных нацеленных программ перевода посредством параллельных корпусов, автоматизированных словарей, анализа и редактирования параллельных текстов на двух и более языках.

В мировом языкознании на повестку дня поставлена необходимость научного обоснования таких вопросов, как автоматизация перевода, создание двуязычных и многоязычных электронных программ-переводчиков с использованием корпусных типов, повышение качества перевода, создание механизма двуязычного параллельного банка текстов. Информационно-поисковая система имеет необходимость разработки электронных двуязычных и многоязычных словарей, дословного переводчика, программы переводчика на основе правил, программы переводчика на основе статистических данных, программы анализа текстов по типам корпусов, а также программы и приложения лингвостатистического изучения переводных текстов. Создание приложений для анализа текста, состоящих из параллельных и других типов корпусов электронных переводчиков, приложений контекстных переводчиков, больших и малых двуязычных баз данных, платформ автоматического перевода в параллельном корпусе и больших платформ, содержащих многоязычные корпуса, а также их быстрое развитие имеет важное значение для исследования научно-теоретических проблем компьютерной лингвистики и корпусного переводоведения.

В нашей республике на повестку дня в переводоведении, как и в других сферах, ставятся такие вопросы, как анализ корпуса, типы корпуса, автоматический перевод, статистический машинный перевод, гибридный машинный перевод, машинный перевод на основе правил, компьютерная лингвистика, двуязычные и многоязычные корпуса и проведение научных исследований по более глубокому пониманию и обработке переводов английского языка на узбекский язык при разработке переводческих программ поставлено. Ведь «...сохранение чистоты государственного языка, обогащение его и повышение речевой культуры населения; обеспечение активной интеграции государственного языка в современные

информационные технологии и коммуникации»¹ является одной из главных задач, стоящих сегодня перед лингвистикой и переводоведением. Соответственно большое значение приобретают такие вопросы, как превращение английского и узбекского языков в компьютерные языки, помещение программ контекстуального перевода в корпус через параллельные тексты, создание специального корпуса для пользователей программ перевода с лексическими единицами и семантическими особенностями текстов.

Наряду с этим данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 8 октября 2019 № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», а также в Послании Президента Республики Узбекистан палатам Олий Мажлиса от 24 января 2020 года и в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Неслучайно система контекстного поиска в параллельном корпусе в области автоматизации перевода стала объектом исследований многих лингвистов. Это можно объяснить большим вниманием и интересом к сфере перевода и развитию программ автоматического перевода в последние годы.

